

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

manbalar asosidagi tahlili.....	347
G.Sh.Shaydullayeva	
Turon sivilizatsiyasi aholisining ijtimoiy holatiga madaniy aloqalarning ta'siri.....	353
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1960–1980-yillarda qishloq xo'jaligi boshqaruvida byurokratik muammolar va davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari.....	358
X.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	362
N.R.G'ulomova	
Ziyorat turizmi: uning tarixiy-tadrijiy rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	367
Sh.F.Allanazarov	
Komil Xorazmiy asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tahlili.....	380
A.T.Toshmamatov	
O'zbek va ukrain xalqlari madaniy uyg'unligining tarixiy namoyasi: Xasanovlar oilasi misolida	380
Sh.A.Mirzamidinova	
Ashurali Zohiriyning shaxsiyati, faoliyati va merosi.....	384
O.B.Abdunosirova	
Amir Temur va Temuriylar davrida pul munosabatlari	390
M.X.Muzaffarov	
Vengriya va Turkiy dunyo: tarixiy bog'lanish va aloqalari.....	393
S.F.Norbekov	
Sharqiy Slavyan diasporasining Turkistondagi madaniy va ma'rifiy hayoti (1918–1924 yy.).....	398

ILMIY AXBOROT

I.T.Boltaboev	
Ijtimoiy adolat konsepsiyasining zamonaviy falsafiy talqinlari.....	409
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1945–1980 yillarda sug'orish va melioratsiya tizimining rivojlanishi	413
N.M.Axmadiyev	
Yangi O'zbekistonda kelesajak avlod tarbiyasiga gerontologik moyiyatini yanada rivojlantirish.....	417
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi hamda globallashuv sharoitida inson tafakkuri barqarorligini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi	420
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiy ta'limotida borliq nazariyasi.	425
Sh.T.Abbosova	
Buyuk ipak yo'lida ilm-fan va madaniy muloqot rivoji	431
Sh.N.Niyozova	
Vatanparvarlikning ma'naviy-falsafiy mohiyati va shaxsning ijtimoiy-axloqiy yetukligi.....	434
Sh.X.Matyobubova	
Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularning Yangi O'zbekistonga ta'siri.....	438
R.D.Dehqonov	
Teatr san'atining yoshlar ruhiy-axloqiy rivojlanishiga ta'siri	442
Z.T.Tursunboyev	
O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikning oldini olishda konformizm omilining ahamiyati	446
R.D.Dehqonov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda teatr san'atining o'rni.....	451
Z.T.Tursunboyev	
“Tazyiq va zo'ravonlik” tushunchalari: turlari va oilada oldini olish mexanizmlari	455
N.T.Xolikov	
Globalashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	459
Sh.A.Rasulova	
Harakatlar strtegiyasidan Yangi O'zbekistongacha: xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy mavqeini mustahkamlanishi	462
A.A.Aloxunov	



UOK: 950(282.1)+7.034

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA PUL MUNOSABATLARI

ДЕНЕЖНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В ПЕРИОД АМИРА ТЕМУРА И ТЕМУРИДОВ

MONETARY RELATIONS DURING THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND THE TEMURIDS

Abdunosirova Ozodaxon Botirjon qizi 

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, t.f.f.d (PhD)

Anotatsiya

Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davri tanga-pul munosabatlari manbalar asosida o'rganilgan. Shuningdek, iqtisodiy islohotlarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri tahlil qilingan.

Аннотация

В статье на основе источников исследуются монетно-денежные отношения эпохи Амира Темура и Тимуридов, а также анализируется влияние экономических реформ на социально-экономическую жизнь страны.

Abstract

This article studies the coinage-money relations of the era of Amir Temur and the Timurids based on sources. It also analyzes the impact of economic reforms on the socio-economic life of the country.

Kalit so'zlar: tanga-pul munosabatlari, "mir", dinor, dirham, kumush, mis, zarbxonalar, iqtisodiy aloqalar, xalqaro aloqalar, iqtisodiy islohotlar, Muhammad Jahongir, Mirzo Ulug'bek.

Ключевые слова: монетно-денежные отношения, «мир», динар, дирхем, серебро, медь, монетные дворы, экономические отношения, международные отношения, экономические реформы, Мухаммад Джахонгир, Мирзо Улугбек.

Key words: coin-money relations, "mir", dinar, dirham, silver, copper, mints, economic relations, international relations, economic reforms, Muhammad Jahongir, Mirzo Ulug'bek.

KIRISH

Amir Temur va Temuriylar davrida tanga-pul munosabatlari siyosiy va iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan. Mazkur sulola davrida iqtisodiy munosabatlar rivojlangan bo'lib, pul, savdo-sotiq va xalqaro iqtisodiy aloqalar anchayin yuksalgan edi. Shu boisdan ham ushbu davr tanga-pul munosabatlarini o'rganishga va hozirgi kundagi iqtisodiy munosabatlar bilan qiyosiy-tahlil qilishga hamda etarli ilmiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Amir Temur va Temuriylar davrida pul munosabatlari va iqtisodiy hayot mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, uni saqlash qolish hamda siyosiy jihatdan rivojlantirishga xizmat qilgan. Sohibqiron siyosiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida tanga zarb qilish va uni aholi orasida qabul qilinishini ta'minlashga harakat qilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Amir Temur va Temuriylar davrida tangalarning bir necha turlari ishlab chiqarilgan. Ular asosan, oltin, kumush va mis tangalardan iborat edi. Amir Temur 1372-1388-yillarda Suyurg'otmish, 1402-yilgacha esa, Mahmudxonning nomlari bilan birga o'z nomini ham qo'shib tanga zarb ettirgan. Sulton Mahmudxon vafotidan so'ng, boshqa qo'g'irchoq xonni taxtga qo'ymasdan, uning nomi bilan tanga-pullar chiqarishni davom ettirgan [1:10]. Amir Temur davri kumush tanga-pullarining bahosi yuqori bo'lgan.

NATIJALAR

1403-yilda R.G.Klavixo bu haqida quyidagicha fikr bildiradi: "Bu yurt don-dun, moy, meva-cheva, qo'y go'shti, har xil go'sht, hamma narsa boy mamlakatdir. Qo'ylari katta dumbali, juda yirik qo'ylar. Boshqa mollar ham shu qadar arzonki, bir yarim qop arpaning bahosi yari real edi" [2:42]. Amir Temur zarb ettirgan tangalar geometrik, turli naqshlar bilan bezatilgan. Bu tamg'alar uchta chambaraksimon kichik xalqalardan iborat. Amir Temur tangalarida arab, fors, turk, mo'g'ul tilidagi so'zlar mavjud.

MUHOKAMA

TARIX

Tangalar asosan kumushdan bo'lib, og'irligi 6 grammni tashkil etgan va u "tanga" deb atalgan. Tanganing to'rtidan biriga to'g'ri keladigan 1,5 grammlik kumush pullar esa, Amir Temur nomi bilan "mir" deb atalgan. Amir Temur davrida tilla tangalarning 12 turi mavjud bo'lib, ular Xorazm to'liq bosib olinganidan keyin ishlab chiqarila boshlangan. Mo'g'ullar istilosidan so'ng Xorazmda zarb etilgan tangalar bizgacha yetib kelmagan. Bu yerda tanga zarb qilish XIII asrning so'nggi choragida boshlangan. Mis, kumush dirhamlar So'fiylar sulolasi hukmronlik qilgan vaqtda, Amir Temur hukmdorligi davrida kichik oltin tangalar chiqarilgan. Xorazmda Chig'atoylar dinoriga o'xshash yirik kumush tangalar bo'lmagan. Xorazmning jund dirhamlari Movarounnahr Chig'atoy dirhamlaridan tabiiyki farq qilgan. Birinchidan, ularning qimmatlari turlicha bo'lib, u asta-sekin kamayib borgan. XIII asrning oxiriga kelib hamma kumush tangalarning og'irligi 2,3 gramm bo'lgan bo'lsa, XIV asrning boshlarida 1,9 gramm, 1380-yilda 1,5 gramm va XV asrning boshlarida 1,1 grammga tushib qoldi. Oltin tangalar og'irligi 1,10-1,15 gramm va hatto undan ham oz bo'lgan [3:203-204].

Shuningdek, Amir Temurning oltin tangalarida ilgari oltin tangalarda zarb qilingan "dinor" qo'llanilmagan. Xorazm tilla tangasi kumush dinorga, ya'ni 6 dirhamga teng bo'lgan. Dinor so'zi tilla tangani emas, balki undagi kumush miqdorini, ya'ni bu tangada o'sha vaqtda amal qilingan tanga tizimidagi oltin-kumush nisbatiga binoan mavjud kumush miqdoriga teng edi.

XIV –XV asr oxirlarida "dinori shohruxiy" nomi bilan oltin dinor chiqarilgan. Oltin dinor o'rtacha 4,25 gramm oltinga teng bo'lgan. Shohrux mirzo davrida zarb etilgan tangalar "shohruxiy" yoki "dinori shohruxiy" deb atalgan [4:613]. Tangalar Samarqand, Buxoro, Afg'oniston, Ozarbayjon sinagari mamlakatlarning Astrabod, Darband, Boku, Mordin, Isfahon, Qum, Kirmon, Sabzavor, Sova, Sheroz, Shabron singari qirg'qa yaqin shaharlarda zarb qilingan. Shohrux mirzo Movarounnahrning va Xurosonning bosh hukmdori sifatida bu joylardagi hamma katta shaharlarda Astrobod, Buxoro, Domg'on, Isfahon, Kushon, Kirmon, Qum, Nishopur, Marv, Sabzavor, Sultoniya, Tabriz, Xorazm, Hirot, Sheroz va boshqa hududlarda zarb etilgan. Shohrux mirzo tangalarida Amir Temur tangalariga xos tamg'a va Amir Temurning nomi berilmagan. Mirzo Ulug'bek davrida zarb etilgan tangalarda esa, Amir Temur nomi tilga olinadi.

Mahalliy hokimlar tomonidan zarb qilingan mayda mis pullar "fulus" ichki savdoda keng qo'llanilgan. Mamlakatda yagona pul birligining joriy etilishi, pul muomalasining tartinga solinishi, ichki va tashqi savdo aloqalarining yanada rivojlanishiga olib keldi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, 1428-yilda Ulug'bekning "fulus" pullari borasidagi islohoti katta ahamiyat kasb etdi [5:159].

	Hukmdorlar	Hajmi	% Jami		Mis tanga
1	Amir Temur	22	29,4	Mil 770-807	7,7
2	Muhammad Jahongir, Xalil Sulton	4	5,3		
3	Shohrux	45	60	837-850	51,3; 28,2
4	Mirzo Ulug'bek	2	2,7	851-853	5,1
5	Abu Sa'id	1	1,3		7,7
6	Sulton Husayn	1	1,3		7,7
		75	100		100

1-ilova

Abdullatif o'z otasini o'ldirib Samarqand saltanatini 6 oy boshqargan bo'lsada o'z nomidan tangalar zarb qildirishga ulgurgan. Bu tangalarga o'z nomi bilan birga bobosi Shohruh nomini ham qo'shib zarb qildirgan: "as-Sulton al-a'zam Abdullatif bahodir ibn Shohruh bahodir ibn Temur Ko'ragon Samarqand, sanai 853/1449". Abdullatif o'ldirilgandan keyin Samarqand taxtiga Ulug'bekning jiyani Abdullo Mirzo o'tiradi. U taxtda bor-yo'g'i bir yil hukmronlik qilgan bo'lsada, o'z nomidan tangalar zarb qildirgan. Bu tangalarning old tomoniga odatdagiday Qur'ondan kalima va dastlabki to'rt xalifaning nomi yozilgan bo'lsa, tanganing orqa tarafiga: "as-Sulton al-a'zam al-hoqon al-odil murshid ad-Din Sulton Abdulla bahodir xaldoloh mulikixu va sultanohu, zarb Samarqand fi sana 854/1450-1451" deb yozilgan [6].

1451-yili Samarqand taxtini Mirzo Abu Said egallagan. Abu Said Shohruh vafotidan keyin parchalanib ketgan Temuriylar davlatini birmuncha tiklashga muvaffaq bo'lgan. Lekin bu harakatlar Sulton Husaynning Xurosonni egallab olgunga qadar, ya'ni 1469-yilgacha davom etgan. Abu Said ham o'z nomidan tangalar zarb ettirgan. Bu tangalarning orqa tomoniga: "zarb al-Sulton al-a'zam Abu Said Ko'ragon xaldoloh mulikixu va sultanaxu" degan yozuv bitilgan. Abu Saiddan so'ng temuriylar taxtini boshqargan Ahmad Mirzo ham o'z nomidan tangalar zarb qildirgan. Tanganing

orqa tarfiga: “as-Sulton al-a’zam Sulton Ahmad Ko’ragon xaldoloh ta’olo mulikixu va sultonaxu, zarb Samarqand” deb yozilgan.

1495-yil uning ikkinchi o’g’li Boysunqur 18 yoshida Samarqand taxtini egallaydi va u ham o’z nomidan tanga pullar zarb qildirgan. Boysunqur tangalarining orqa tomoniga: “as-Sulton al-a’zam xaldoloh ta’olo mulikixu va sultonaxu” deb yozdirgan. Tanganing markaziy qismida yumaloq doira ichiga “Sulton Boysunqur g’ozi, 901/1495 Sulton Boysunqur g’ozi, 901/1495-1496” deb yozilgan bo’lsa, tangalarning old tarafiga: “la iloha illoloh Muhammad Rasulolloh”, atrofiga esa avvalgi to’rt xalifaning nomlari va sifatleri: “Abu Bakr Siddiq, Umar al-Farrux, Usmon zul-nurayn, Ali al-Murtazoi” deb yozilgandir [7:24].

Shohrux vafotidan keyin Amir Temur avlodlari o’rtasida Xuroson hukmronligi uchun olib borilgan o’zaro kurashlarda oxir-oqibat Sulton Husayn Bayqaro g’olib chiqadi. Sulton Husayn Bayqaro davrida (875/1470 – 912/1506-yillar) Xurosonning Astrobod, Mashhad, Marv, Sabzavor, Semnon singari katta shaharlarida oltin, kumush va mis tangalar zarb qilinib, savdo muomalasida keng yuritildi [8:25].

2009-yilda Sariqamish ko’li atrofida arxeologik qazishma ishlari olib borilgan va u erda 500 ga yaqin tangalar topilgan. Ular orasida 36 ta kumush va 39 ta mis tangalar temuriylar davriga oiddir.

XULOSA

XIV asr oxiri – XV asr boshlarida mamlakatning birlashuvi, iqtisodiy munosabatlarning tartibga solinishi natijasida ichki va tashqi savdoning yuksalishiga hamda pul munosabatlarning rivojlanishiga olib keldi. Pul islohotlari hunarmandchilik va ishlab chiqarishning o’sishiga katta ta’sir ko’rsatgan. O’z navbatida, ayni omillar aholi turmush-tarzi va ijtimoiy hayotning yaxshilanishiga olib kelgan.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Хондамир Гиёсиддин. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Жалил Ҳазраткулов, Исмоил Бекжонов, Изоҳлар муаллифлари – Ашраф Аҳмедов, Исмоил Бекжонов, – Т.: Ўзбекистон, 2013. – 1272 б.
2. Нәсән бәй Румлу. Өһсәнүт-төварих. (Tarixlarlärin әn yaxşisi). –Kastamonu: Uzunlar, 2017 (Нәсән бәй Румлу. Өһсәнүт-төварих.). 21-33s
3. Бартольд В.В. Улугбекъ и эго время. – Петроградъ, 1918. – С. 19-36.
4. Исмоил ака. Буюк Темур давлати. Қ. Қахҳор тарж. – Т.: Чўлпон, 1996 – Б. 160.
5. В.В.Бартольд. К истории орешения Туристана. – С. 11
6. Бартольд В.В. Очерк истории Семиречья. – Москва: Восточной литературы, 1963.
7. Чехович.О.Д. Самаркандские документы XV – XVI вв. – Т.: Наука, 1974. – С. 631
8. Тўхтиев.И. Темур ва Темурийлар сулоласининг тангалари. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 44
9. Нумизматика и Эпиграфика. – Москва: Наука, 1974. – С. 600.
10. Manz.B. Power, Politics and Religion in Timurid Iran. Cambridge University Press, 2007. – P. 219